

SAN'ATKORLAR

*Abdug'aniyeva Farangizbonu**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**Farg'ona mintaqaviy filiali "Musiqali teatr aktyorligi" 3-bosqich talabasi**Ilmiy rahbar: Umidaxon Boltaboyeva*

Anatatsiya: maqolada san'at darg'alaridan bo'lmish muhtaram san'atkor san'at sohasida o'chmas iz qoldirgan va bundayin matonatli va bardoshli ijod cho'qqisini zabd etgan va zabd etib kelayotgan san'atkorlarimizning hayoti, ularning ijodiy hayoti haqida juda ham mazmunili va kerakli fikir va mulohazalar keltirilgan

Kalit so'zlar: lirik, dramatik, soprano, opera, sahna, "Revizor", aktrisa, pedagog, rol, mumtoz, musiqa, harakter, san'at, drama, videofilm

Bizning o'zbek san'ati azaldan juda ham go'zal va boy tarixga ega. Bu tarixda juda ham ko'plab insonlar yashab ijod qilib o'z o'rinlarin topib ketganlar. Bugun ana shunday ijodkorlarimizdan buyuk aktyor san'atkorlarimizning ulug'laridan tortib hozzirgi zamoda ham ijod qilayotgan ayrim san'at ustalari haqida suhbatlashamiz. Obid Yunusov (1934.20.11, Toshkent — 2015.21.9) — aktyor, O'zbekiston xalq artisti (1990). Yunus Rajabiyning o'g'li. Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini tugatgan (1956). 1956—98 ylar Hamza teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri)da ishladi. Erkin ("Aytsam tilim, aytmasam dilim"), Qayum ("Yurak yonmog'i kerak"), Xolmat ("Boy ila xizmatchi"), Abbos ("Mirzo Ulutbek"), Ma'mur ("Kelinlar qo'zg'oloni"), Kirill qon"), Sino ("Abu Ali ibn Sino"), O'tkuriy ("Parvona") kabi obrazlari bilan teatr sahnasidan mustahkam o'rin oldi. U bir qancha filmlar ("Armon", "To'ylar muborak", "Chinor ostidagi duel", "Chayon gul", "Shaytanat", "Sharpa" va boshqalar)da ham suratga tushgan. U serqirra, murakkab va ayni chokda yaxlit haraktern yaratuvchi aktyor bo'lib, uning qahramonlari jasoratli, ulugvor, harakat bilan nutqining rangbarangligi, musiqiy va serma'noligi bilan ajralib turadi. Dublyaj san'atining mohir ustasi sifatida 1000 ga yaqin bosh rollar ("Kirol Lir"da Lirga, "Sangam"da Sundurga va boshqalar)ga ovoz bergan. Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1989), "Mehnat shuhrati" ordeni bilan takdirlangan.

Nabi Rahimov (1911.7.11, Qo'qon 1994.23.11, Toshkent) — O'zbekiston xalq artisti (1950). O'zbek davlat drama teatri qoshidagi drama studiyasida o'qigan (1929). 14 yoshidan Qo'qon teatri spektakllarida qatnashgan. 1929—94 yillar Hamza teatriida ishlagan. R. harakterli va hajviy rollarni alohida muvaffaqiyat bilan o'ynagan, lekin aktyor repertuarida dramatik fojiaviy obrazlardan tortib, lirik qahramonlargacha mavjud. Uning sahna obrazlarida milliy xalq teatri

an'analari zamonaviy professional san'at tajribasi bilan uyg'unlashib ketgan. U yaratgan obrazlarda hozirjavoblik, o'tkirso'zlik, hazil va badihaga chapdaslik asosiy omil bo'lib, yorqin milliy kolorit, yengil yumori, tashqi ko'rinishining aniq ifodasi, mukammal ijrosi bilan ahamiyatlidir. R. garchi o'z faoliyatini komik va harakterli aktyor sifatida boshlagan bo'lsada, keyinchalik mavjud yo'nalishlarning barchasidan eng yaxshi xususiyatlarni o'zlashtirish va o'z uslubiga singdirish yo'lidan bordi.

"Xolisxon"da Norboyvachcha, "Ona"da Boltaboy, "Mehmonxona bekasi"da Rippofratta, "Revizor" da Xlestakov, "Uylanish"da Bobchinskiy, "Shohi so'zana"da Qo'ziyev, "Og'riq tishlar"da Marasul, "Hamlet"da Laert kabi obrazlarni 30—50- yillarda yaratdi. Ayniqsa, "Otello"dagi Yago obrazi aktyor yaratgan eng sara obrazlar sirasiga kiradi. Yago obrazi aktyor ijodida nainki satirik tusli, balki kuchli ruhiy dramatik kechinmalar namunasidir. Bo'riboy ("Tog'a va jiyanlar"), Bobo Kayfiy ("Mirzo Ulug'bek"), Shokir ota ("Qutlug' qon"), Olbeni ("Qirol Lir") kabi 60-yillarda yaratgan obrazlari eng yaxshi psixologik kuchli rollardir. Keyingi yillar yaratgan Urganjiy ("Buxoro"), Sayd Karimov ("Komissiya"), Ota ("G'ariblar"), Sa'diyev ("O'n uchinchi rais") singari obrazlari ijtimoiy o'tkirligi, jisman sokin, ruhan jo'shqinligi, chuqur psixologik talqini bilan alohida e'tiborga molikdir. Urganjiy obrazi R. ijrosidagi eng murakkab va barkamol obrazlardan biri. Aktyorning o'tkir ijrosi, murakkab ruhiy kechinmalarni yuzaga chiqarishi, bosiq ohanglar bilan juda katta ma'noga erishishi diqqatga sazovordir. o'zbek kinosi rivojiga salmoqli hissa qo'shganlardan: Aliyev ("Stadionda uchrashamiz"), Turdiyev ("Maftuningman"), Choyxonachi ("41yil olmalari"), Bobo Kayfiy ("Ulug'bek yulduzi"), Shoqosim ("Qutlug' qon"), Us t a Olim ("O'tgan kunlar"), Shoh ("Semurg'"), Safar bo'zchi ("Mehrobdan chayon"), Us t a Boqi ("Kelinlar qo'zg'oloni") va boshqa obrazlari bilan kino oltin fondidan o'rin oldi. Shuningdek, videofilm va telespektakllarda ham suratga tushgan: "Kutlug' qon" (Yormat ota), "Diyonat" (prof. Shobaratov), "Hamma narsa odamlarga qoladi" (akad. Drozdov), "Bobur" (Muhammadjon) va boshqa shular jumlasidan. R. haqida "Nabi Rahimov hayotida ikki kun", "Uchrashuv" videocherklari ishlangan. 1950—65 yillar San'at institutida dars bergan. Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1967)

Erkin Komilov (1946.20.7, Andijon viloyati, Kurfa qishlog'i) — O'zbekiston xalq artisti (1998). Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini tugatgan (1968). 1966-yildan Hamza teatrida aktyor. Eng yaxshi rollari: Qilichbek ("Oltin devor"), Qobiljon ("Samandar"), Ibn Sino ("Beruniy"), Karl Moor ("Qaroqchilar"), Jevakin ("Uylanish"), Glumov ("Har to'kisda bir ayb"), Myasnikov ("Qatag'on"), al-Zokir ("Piri Koinot"), Boyazit ("Sohibqiron Timur"), Ikrom ("Ufq"), Albeni ("Qirol Lir"), Abulfayzxon ("Abulfayzxon"), Ortiq ("Noyob nusxa"), Mannon Uyg'ur

("Tomosha davom etadi"), Garrison ("Yetti faryod") va boshqa Yaratgan obrazlariga o'ziga xos rang berib, harakterlarning ishonchli chiqishiga erishadi. Rol o'ynashda yaxshilik, tabiiylik, qahramonning hissiyot va kechinmalarini murakkab majmuini bera olish, aktyor siyratidagi jilovlangan kuch, ziyolilik, ichki madaniyatning jo'sh urishi K. ijodiga xos. K. kinoda ham bir qancha obrazlar yaratgan: Begimqul ("Yuzsiz"), Yo'ldosh ("Sevgi"), Muslim ("O'tgan kunlar"), Valixo'ja eshon ("Amirning hufiyona yurishi"), Hurrām ("Tilla bola"), Boyazid Yildirim ("Amir Timur"), Qurbonov ("Uchishga ruxsat eting"), Dovjenko kinostudiyasida "Yulduz shu'lası" filmida Ergash Sobirov va boshqa Video va telefilmlarda Aziz Qosimov ("Girdob"), Sultonmurod ("Alisher Navoiy"), Haydar ("Diyonat"), Abdurahim Saidov ("Yoz yomg'iri"), Charlz Forister ("Qora karvon"), Bachana ("Abadiyat qonuni"), Abdujabbor ("Qora ko'zlar"), Mayor Salihov ("So'nggi o'q"), Haydar (Kesak polvon) ("Shaytanat"), Shokir ota ("Yettinchi falakdan kelgan ovoz") kabi rollar ijro etgan. "Otalar so'zi—aqlning ko'zi" ko'rsatuvida 100 dan ortiq rol o'ynagan, 500 dan ortiq film (ayniqsa, multfilm, ertak-filmlar)ni dublyaj qilishda qatnashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *S.Tursunboyev "Teatr tarixi" o'quv qo'llanma.-T.: O'MKHTM, << Bilim >>, 2005.-288 bet*
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. "<https://uz.wikipedia.org/w/index.php?>